

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

PROSPECTS FOR DEVELOPING INTERNATIONAL LEGAL COOPERATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN PREVENTING AND REGULATING CRIMES IN THE FIELD OF CRYPTO-ASSETS

Gulomamatova Parvina Akbarali qizi

Tashkent State Law University

Teacher, Department of Cyber Law

Abstract. This article analyzes the prospects for developing international legal cooperation of the Republic of Uzbekistan in preventing and regulating crimes in the field of crypto-assets. The study examines FATF standards, mutual evaluation mechanisms within the EAG framework, and improvements in the national legal framework..

Keywords: crypto-assets, international cooperation, FATF, EAG, money laundering, terrorist financing, VASP, NAPP, digital assets.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLIH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Kiber huquq kafedrası o'qituvchisi

E-mail: gulommamatova@gmail.com

<http://www.orcid.org/0009-0007-2120-2292>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining kripto-aktivlar sohasidagi jinoyatlarni oldini olish va tartibga solish borasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda FATF standartlari, Yevrosiyo guruhi doirasidagi o'zaro baholash mexanizmlari hamda milliy huquqiy baza takomillashuvi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: kripto-aktivlar, xalqaro hamkorlik, FATF, EAG, pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish, VASP, NAPP, raqamli aktivlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N76>

Kirish. XXI asrning ikkinchi o'n yilligida kriptovalyutalar va boshqa raqamli aktivlarning jadal rivojlanishi jahon moliyaviy tizimida tubdan o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Kriptovalyutalar va virtual aktivlar bir tomondan innovatsion moliyaviy texnologiyalar sifatida iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirs, ikkinchi tomondan jinoyatchilar uchun pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish va boshqa noqonuniy faoliyatni amalga oshirishda yangi vositalar yaratdi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2022-yilda kriptovalyutalar orqali amalga oshirilgan noqonuniy operatsiyalar hajmi 20,1 milliard AQSh dollariga yetgan bo'lib, bu 2021-yilga nisbatan 44 foizga ko'p [1; 3-b.]. Bundan tashqari, 2022-yilda kriptovalyutalar bilan bog'liq barcha faoliyatda noqonuniy operatsiyalar ulushi 2021-yildagi 0,12 foizdan 0,24 foizga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi 2018-yildan boshlab kripto-aktivlar sohasini tartibga solish bo'yicha faol qadamlar qo'yimoqda. Prezident farmonlari va qarorlari asosida shakllantirilgan huquqiy baza mamlakatda kripto-aktivlar bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash, nazorat qilish va jinoyatlarning oldini olish mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan. Shu bilan birga, kripto-aktivlar sohasidagi jinoyatlarning transmilliy xarakteri bu boradagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Kriptoalyutalarning anonim va chegarasiz tabiati huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilarni kuzatish va jinoiy aktivlarni musodara qilish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasining kripto-aktivlar sohasidagi jinoyatlarni oldini olish va tartibga solish borasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligini rivojlantirish istiqbollarini ilmiy jihatdan asoslash hamda tegishli takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbliigi FATF tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan hisobotda ta'kidlanganidek, 98 ta yurisdiksiyaning 75 foizi hali ham virtual aktivlar va virtual aktiv xizmat ko'rsatuvchilarini tartibga solish bo'yicha FATF talablariga qisman yoki to'liq mos kelmasligida namoyon bo'ladi [2; 1-b.]. Bu global miqyosda kripto-aktivlar sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda jiddiy bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kripto-aktivlar sohasidagi jinoyatlarni oldini olish va tartibga solishning xalqaro-huquqiy asoslari bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu sohada FATF standartlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. FATF 2019-yilda pul yuvishga qarshi kurash va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash choralarini virtual aktivlar va virtual aktiv xizmat ko'rsatuvchilariga nisbatan kengaytirdi. Bu standartlar kriptoalyutalar orqali jinoyatchilar va terroristlar tomonidan sohadagi suiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan [3; 2-b.]. FATF 15-tavsiyasi va uning izohlovchi eslatmasi virtual aktivlar bilan bog'liq AML/CFT choralarini amalga oshirishning asosiy huquqiy bazasi hisoblanadi va barcha a'zo davlatlarni bu standartlarni milliy qonunchilikka joriy etishga undaydi.

Bazel Boshqaruv Instituti tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan AML indeksi tahlilida qayd etilishicha, 2017-yil dekabr oyidan 2023-yil sentyabr oyigacha FATF tomonidan baholangan 161 ta y

Yurisdiksiyadan faqat 12,5 foizi 15-tavsiya bo'yicha muvofiqlik darajasini ta'minlagan, 20,5 foizi esa umuman mos kelmaydi deb baholangan. Global o'rtacha texnik muvofiqlik darajasi atigi 43 foizni tashkil etadi, bu esa barcha 40 tavsiya bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada past [4; 1-b.]. Bu statistik ma'lumotlar kriptoalyutalarni tartibga solish sohasida xalqaro hamjamiyat oldida turgan muammolarning ko'lamini yaqqol ko'rsatadi.

O'zbekiston kontekstida S.Abdulkasimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mamlakatning kripto-aktivlar sohasidagi huquqiy bazasini tahlil qilgan. Muallif O'zbekiston 2018-yildan boshlab kripto-aktivlar sohasini tartibga solish bo'yicha kompleks yondashuvni shakllantirganligini ta'kidlaydi [5; 1-b.]. Tadqiqotda milliy tartibga solish organi sifatida NAPP ning roli, litsenziyalash tartiblari va soliq imtiyozlari keng tahlil qilingan. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va chegaralararo hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ham qayd etadi.

Yevropa huquqshunoslari M.Lehmann va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kriptoalyutalarni tartibga solishning parchalangan landshafti samarasizliklarni keltirib chiqarishi va tartibga solish arbitrajini rag'batlantirishi ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar

xalqaro kriptovalyuta tartibga solishni nazorat qilish va amalga oshirish uchun Moliyaviy barqarorlik va innovatsiyalar kengashi tuzishni taklif qilishadi [6; 1-b.]. Ushbu yondashuv global nazoratni kuchaytiradi va chegaralararo yagona muvofiqlikni ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va hujjatlarni tahlil qilish usullari qo'llanildi. Tadqiqot manbalariga FATF rasmiy hisobotlari, Yevrosiyo guruhi o'zaro baholash hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar kiradi. Tadqiqot 2020-yildan keyingi davrni qamrab oladi, chunki aynan shu davrda kripto-aktivlar sohasidagi xalqaro standartlar sezilarli darajada takomillashtirilgan.

Muhokama. O'zbekiston Respublikasining kripto-aktivlar sohasidagi xalqaro hamkorligini tahlil qilishda avvalo mamlakatning Yevrosiyo guruhi doirasidagi ishtiroki va o'zaro baholash mexanizmlarini ko'rib chiqish zarur. O'zbekiston 2005-yildan beri EAG ning to'liq huquqli a'zosi hisoblanadi va AML/CFT sohalarida metodologiya hamda amaliy ko'rsatmalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi [7; 1-b.]. EAG Yevrosiyo mintaqasi mamlakatlarini pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashda yagona standartlarni ishlab chiqish uchun birlashtiradi. O'zaro baholash jarayoni mamlakatning AML/CFT tizimini FATF xalqaro standartlariga muvofiqligini har tomonlama baholashni o'z ichiga oladi.

2022-yilda EAG tomonidan O'zbekistonning AML/CFT tizimini ikkinchi marta o'zaro baholash o'tkazildi. 2023-yildagi birinchi kuchaytirilgan monitoring hisobotida mamlakatning texnik muvofiqlik kamchiliklarini bartaraf etishda sezilarli yutuqlarga erishgani qayd etildi. Xususan, 6-tavsiya bo'yicha reyting qisman muvofiqdan asosan muvofiqqa, 7-tavsiya bo'yicha ham shunga o'xshash yaxshilanish qayd etildi [8; 1-b.]. Shuningdek, 22-tavsiya ham qisman muvofiqdan asosan muvofiq darajasiga ko'tarildi. Bu natijalar O'zbekistonning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha izchil sa'y-harakatlarini ko'rsatadi va mamlakatning kuchaytirilgan monitoringdan oddiy monitoringga o'tkazilganligini bildiradi.

Milliy darajada O'zbekistonda kripto-aktivlar sohasini tartibga solish uchun maxsus davlat organi faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi kripto-aktivlar bozorining asosiy regulyatori hisoblanadi. NAPP kripto-aktiv xizmat ko'rsatuvchilarini litsenziyalash, yangi qoidalar va tartiblarni joriy etish hamda sohada qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash uchun mas'uldir [9; 1-b.]. Agentlik to'g'ridan-to'g'ri Prezidentga hisobot beradi va bu uning tartibga solish funksiyalarining mustaqilligini ta'minlaydi. NAPP shuningdek kapital bozori va sug'urta sektorini ham nazorat qiladi, bu esa yagona tartibga solish yondashuvini shakllantirish imkonini beradi.

2023-yil 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston rezidentlari kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni faqat mamlakatda ro'yxatdan o'tgan va tegishli litsenziyalarga ega bo'lgan milliy xizmat ko'rsatuvchilar orqali amalga oshirishi mumkin. Bu talab pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirish xavflarini kamaytirish, shuningdek, operatsiyalar ustidan davlat nazoratini ta'minlash maqsadida joriy etilgan [10; 1-b.]. VASP lar to'rt toifaga bo'linadi: kripto-birjalar, kripto-do'konlar, kripto-depozitariylar va mayning pullari. Har bir toifa uchun alohida litsenziyalash tartiblari va to'lovlar belgilangan. 2024-yil oktyabr oyiga qadar mamlakatda 15 ta litsenziyalangan kompaniya faoliyat yuritmoqda.

Xalqaro hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib Travel Rule talabini amalga oshirish hisoblanadi. FATF tomonidan belgilangan ushbu qoida VASP lardan ma'lum

chegaradan yuqori operatsiyalar uchun jo'natuvchi va oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, uzatish va saqlashni talab etadi. Bu virtual aktiv o'tkazmalarini an'anaviy moliyaviy tizimdagi bank o'tkazmalari standartlariga moslashtirish, shaffoflikni oshirish va huquqni muhofaza qilish organlariga noqonuniy pul oqimlarini kuzatish imkonini berishga qaratilgan [11; 1-b.]. AQShda bu chegara 3000 dollar, ko'plab boshqa mamlakatlarda esa 1000 dollar etib belgilangan.

Biroq, 2023-yildagi FATF so'rovnomasiga javob bergan 151 ta yurisdiksiyaning yarmidan ko'pi hali ham Travel Rule ni amalga oshirish bo'yicha hech qanday qadamlar qo'ymagan. Bu jiddiy tashvish uyg'otadi, chunki virtual aktivlar va VASP lar tomonidan keladigan xavflar oshib bormoqda, tartibga solish bo'shliqlari esa jinoyatchilar uchun foydalanish mumkin bo'lgan muhim kanallarni yaratmoqda [12; 1-b.]. O'zbekiston ushbu yo'nalishda milliy qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha izchil ishlar olib bormoqda. VASP larga mijozlarni aniqlash va shubhali operatsiyalarni tegishli organlarga xabar berish majburiyatlari yuklatilgan.

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim jihati bu huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi axborot almashish va qo'shma tergov olib borishdir. Kripto-jinoyatlarni tekshirishda blockchain analitikasi vositalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqotlarga ko'ra, huquqni muhofaza qilish mutaxassislarining 80 foizdan ortig'i blockchain tahlili kripto-valyutalar bilan bog'liq tergov ishlarida yuqori darajada dolzarb ekanligiga rozi [13; 2-b.]. Shu bilan birga, turli mamlakatlar o'rtasidagi huquqiy tizimlar farqi, ekstraditsiya shartnomalarining mavjudligi va ma'lumotlarni himoya qilish qonunlari chegaralararo hamkorlikni murakkablashtiradi. INTERPOL va Eurojust kabi xalqaro tashkilotlar bu borada muhim koordinatsiya rolini o'ynaydi.

Yevropa Ittifoqi tajribasi ham e'tiborga loyiq. 2023-yil may oyida qabul qilingan Kripto-aktivlar bozori to'g'risidagi reglament Yevropa iqtisodiy zonasida kripto-aktivlarni tartibga solishning yagona huquqiy bazasini yaratdi. Ushbu reglament FATF standartlariga muvofiqlikni ta'minlaydi va kripto-aktiv xizmat ko'rsatuvchilariga iste'molchilarni himoya qilish, boshqaruvni yaxshilash bo'yicha choralarni ko'rishni majbur etadi [14; 1-b.]. Reglament 2024-yil dekabr oyidan kuchga kirdi va kripto-aktivlarni kuzatish imkonini beruvchi tartibga solish bazasini yaratdi. O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqi tajribasini o'rganish va tegishli elementlarni milliy qonunchilikka moslashtirish istiqbolli yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Terrorizmni moliyalashtirish va sanksiyalarni chetlab o'tishda kripto-valyutalarning roli ham alohida e'tiborga molik. BMT Xavfsizlik Kengashi Kontrterroristik qo'mitasining hisobotiga ko'ra, KXDR davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kiber guruhlar orqali VASP lardan yirik mablag'larni o'g'irlash orqali noqonuniy qurol-yarog' dasturlarini moliyalashtirmoqda. 2022-yilda bunday o'g'irliklar hajmi tarixiy maksimumga yetdi [15; 1-b.]. ISIS, Al-Qoida va boshqa terroristik tashkilotlar ham kripto-valyutalardan foydalanishni kengaytirmoqda. Bu holatlar xalqaro hamkorlikni kuchaytirishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining kripto-aktivlar sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar aniqlandi. Birinchidan, FATF 15-tavsiyasi va Travel Rule talablarini to'liq amalga oshirish zarur. Hozirgi kunda O'zbekiston milliy qonunchiligida ushbu standartlarning asosiy elementlari aks ettirilgan, biroq amaliy tatbiq etish mexanizmlari takomillashtirishni talab etadi. Xususan, VASP lar o'rtasida axborot almashish protokollarini ishlab chiqish, sanksiyalar ro'yxati bilan

avtomatik tekshiruv tizimlarini joriy etish zarur. Shuningdek, DeFi platformalari va boshqarilmaydigan hamyonlar bilan bog'liq xavflarni baholash metodologiyasini ishlab chiqish lozim.

Ikkinchidan, EAG doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida kripto-aktivlarni qabul qilish bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakat global reytingda 33-o'rinni egallagan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 54 pozitsiyaga ko'tarilishni bildiradi [16; 1-b.]. Mamlakatda 512 mingdan ortiq shaxs raqamli aktivlarga egalik qiladi, bu umumiy aholining 1,46 foizini tashkil etadi. Litsenziyalangan provayderlardan o'tgan tranzaksiyalar hajmi 1 milliard dollardan oshgan. Ushbu salohiyatdan foydalangan holda, O'zbekiston mintaqaviy hamkorlikda yetakchilik rolini o'z zimmasiga olishi mumkin.

Uchinchidan, ikki tomonlama va ko'p tomonlama huquqiy yordam shartnomalarini kengaytirish zarur. Kripto-jinoyatlarning transmilliy xarakteri huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi tezkor axborot almashish va qo'shma tergov olib borish imkoniyatlarini talab etadi. Hozirgi kunda O'zbekiston MDH mamlakatlari va boshqa davlatlar bilan huquqiy yordam shartnomalariga ega, biroq bu shartnomalarni kripto-aktivlar sohasidagi o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda yangilash talab etiladi. Raqamli dalillarni yig'ish, uzatish va saqlash tartiblari alohida kelishilishi lozim.

To'rtinchidan, xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. NAPP allaqachon blockchain tranzaksiyalarini tahlil qilish bo'yicha ixtisoslashgan kompaniyalar bilan hamkorlik qilmoqda. Xususan, Heemera kompaniyasi NAPP regulativ sandboxiga kiritilgan bo'lib, bu unga nazorat ostidagi muhitda blockchain tranzaksiyalarini tahlil qilish standartlarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish imkonini beradi [17; 1-b.]. Bundan tashqari, 2024-yil mart oyida NAPP va Tether kompaniyasi o'rtasida O'zbekistonda blockchain texnologiyasi va steyblkoinlarni rivojlantirish bo'yicha memorandum imzolandi [18; 1-b.]. Bu hamkorlik markaziy bank raqamli valyutasi va aktivlarni tokenlashtirish texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan.

Beshinchidan, mutaxassislar malakasini oshirish va xalqaro tajriba almashish dasturlarini kengaytirish zarur. Kripto-jinoyatlarni tekshirish maxsus bilim va ko'nikmalarni talab etadi. EAG doirasida 2023-yil mart oyida Toshkentda texnik yordam beruvchilar va donorlar yig'ilishi bo'lib o'tdi, bu O'zbekistonning AML/CFT tizimini takomillashtirish bo'yicha xalqaro hamkorlikka bo'lgan tayyorligini ko'rsatadi [19; 1-b.]. Shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun blockchain analitikasi, kripto-kriminalistika va xalqaro hamkorlik bo'yicha maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi kripto-aktivlar sohasidagi jinoyatlarni oldini olish va tartibga solish borasida xalqaro-huquqiy hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy va institutsional poydevarga ega. NAPP rahbarligida shakllangan tartibga solish tizimi, EAG doirasidagi faol ishtirok va milliy qonunchilikni FATF standartlariga moslashtirish bo'yicha izchil sa'y-harakatlar mamlakatning xalqaro hamkorlikka tayyorligini tasdiqlaydi. Mamlakatning mintaqaviy reytinglardagi yuqori o'rni va kripto-aktivlarni qabul qilishdagi yetakchiligi xalqaro hamkorlikda faol rol o'ynash imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, kripto-aktivlar sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Avvalo, Travel Rule talablarini

to'liq amalga oshirish uchun tegishli texnik va huquqiy infratuzilmani yaratish zarur. Bu VASP lar o'rtasida xavfsiz axborot almashish protokollarini ishlab chiqish, shuningdek, xalqaro hamkorlarning axborot tizimlari bilan integratsiyani ta'minlashni o'z ichiga oladi. IVMS101 kabi xalqaro standartlarga muvofiq ma'lumotlar almashinuvi protokollarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan kripto-aktivlar sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risida maxsus kelishuvlarni imzolash tashabbusi bilan chiqishi maqsadga muvofiq. Bu kelishuvlar axborot almashish, qo'shma tergov guruhlarini tuzish va huquqiy yordam ko'rsatish mexanizmlarini o'z ichiga olishi kerak. EAG platformasidan foydalangan holda, mintaqadagi boshqa davlatlar bilan tajriba almashish va birgalikda kadrlar tayyorlash dasturlarini amalga oshirish mumkin.

Nihoyat, blockchain analitikasi va sun'iy intellekt texnologiyalarini huquqni muhofaza qilish organlarining amaliyotiga joriy etish zarur. Bu texnologiyalar kripto-aktivlar orqali amalga oshirilgan noqonuniy operatsiyalarni aniqlash va tekshirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O'zbekiston ushbu yo'nalishda xususiy sektor bilan hamkorlikni kengaytirish va xalqaro tajribadan foydalanish orqali mintaqaviy yetakchi sifatidagi mavqeyini mustahkamlashi mumkin. Kripto-aktivlar sohasidagi xalqaro hamkorlikning samarali tashkil etilishi nafaqat milliy moliyaviy tizimni himoya qilish, balki global moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga ham muhim hissa qo'shadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Chainalysis. The 2023 Crypto Crime Report. – New York: Chainalysis Inc., 2023. – 117 p.
2. FATF. Targeted Update on Implementation of the FATF Standards on Virtual Assets and VASPs. – Paris: FATF, 2023. – 68 p.
3. FATF. Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. – Paris: FATF, 2021. – 99 p.
4. Basel Institute on Governance. Basel AML Index 2023: Virtual currencies regulatory analysis. – Basel: Basel Institute on Governance, 2023. – 24 p.
5. Abdulkasimov Sh. Crypto legislation in Uzbekistan: overview // Society and innovations. – 2023. – Vol. 4. – No. 8. – P. 1-12.
6. Lehmann M. Global Rules for a Global Market Place? – Regulation and Supervision of FinTech Providers // Boston University International Law Journal. – 2021. – Vol. 38. – P. 117-153.
7. Eurasian Group on Combating Money Laundering and Financing of Terrorism. About EAG. – Moscow: EAG Secretariat, 2024. – URL: <https://eurasiangroup.org/en/about-eag>
8. FATF. Uzbekistan's progress in strengthening measures to tackle money laundering and terrorist financing: 1st Enhanced Follow-up Report. – Paris: FATF, 2023. – 18 p.
9. Daryo News. Uzbekistan's regulatory landscape for crypto assets: comprehensive overview. – Tashkent: Daryo, 2024. – URL: <https://daryo.uz/en/2024/04/03/uzbekistans-regulatory-landscape-for-crypto-assets>
10. Elliptic. Uzbekistan: Country Guide for Crypto Compliance. – London: Elliptic Enterprises Ltd., 2023. – 8 p.
11. TRM Labs. FATF Updates on Recommendation 15 Implementation in Jurisdictions With Materially Important Virtual Asset Sectors. – San Francisco: TRM Labs Inc., 2025. – 12 p.
12. FATF. Virtual Assets: Targeted Update on Implementation of the FATF Standards on VAs and VASPs (June 2023). – Paris: FATF, 2023. – 54 p.

13. Merkle Science. Strategies For Law Enforcement To Identify and Investigate Crypto Crimes. – Singapore: Merkle Science Pte. Ltd., 2023. – 18 p.
14. European Parliament. Regulation (EU) 2023/1114 on markets in crypto-assets (MiCA). – Brussels: Official Journal of the European Union, 2023. – 149 p.
15. UNODC. Countering the Misuse of Virtual Assets for Terrorism Financing Purposes. – Vienna: United Nations, 2024. – 86 p.
16. Lexology. Legal Technology: Regulation and Licensing of Crypto Custodians: Uzbek perspective. – London: Law Business Research Ltd., 2025. – 6 p.
17. Crypto Guide Uzbekistan. Regulatory Framework and Market Participants. – Tashkent: NAPP, 2024. – URL: <https://cryptoguide.uz/>
18. Tether. Tether Signs MOU with Republic of Uzbekistan to Develop Blockchain Infrastructure. – Road Town: Tether Operations Limited, 2024. – URL: <https://tether.io/news/>
19. EAG. Coordination of Technical Assistance: Meeting in Tashkent, March 2023. – Moscow: EAG Secretariat, 2023. – URL: <https://eurasiangroup.org/en/eag-stacs>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).